



**IQTIDORLI TALABALAR,
MAGISTRANTLAR, TAYANCH
DOKTORANT VA DOKTORANTLARNING
“TAFAKKUR VA TALQIN”**

**MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI
ILMIY-AMALIY ANJUMAN
TO‘PLAMI**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MAGISTRATURA BO‘LIMI

**IQTIDORLI TALABALAR, MAGISTRANTLAR,
TAYANCH DOKTORANTLAR VA
DOKTORANTLARNING**

TAFAKKUR VA TALQIN
mavzusida

*respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy
anjuman to‘plami*

Buxoro 2025-yil, 15-may

Tahrir hay’ati

O.X.Xamidov	- Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor;
R.G'.Jumayev	- Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori, (PhD), professor;
K.A. Samiyev	Texnika fanlari doktori (DSc), dotsent;
D.R. Djurayev	- Fizika-matematika fanlari doktori, professor;
S.Q. Qahhorov	- Pedagogika fanlari doktori, professor;
A.A. Turayev	- Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor;
S.B.Bo'riyev	- Biologiya fanlari doktori, professor;
B.N.Navro'z-zoda	- Iqtisodiyot fanlari doktori, professor;
O.S.Qahhorov	- Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor;
Sh.Sh.Olimov	- Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor;
B.E.Qilichov	- Filologiya fanlari doktori (DSc), professor;
M.B.Ahmedova	- Filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent;
B.B.Namozov	- Tarix fanlari doktori (DSc), professor;
M.A.Tursunov	- Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor;

Mas'ul muharrir:

A.A. Turayev – magistratura bo'limi boshlig'i f.-m.f.f.d., (PhD) professor.

Muharrirlar:

M.B.Qayimova – BuxDU 1-bosqich magistranti.

T.Sh.Ergashev – Magistratura bo'limi bosh mutaxassisi.

D.R.Rahmatova – Magistratura bo'limi mutaxassisi.

To'plamda iqtidorli talabalar, magistrantlar, tayanch doktorantlar va doktorantlarning ilmiy izlanishlari, tajriba almashish, sohalarda amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilish va bu boradagi takliflarni ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-amaliy va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Mazkur to'plamga kiritilgan tezislarning mazmuni, statistik ma'lumotlar hamda bildirilgan fikr va mulohazalarga shaxsan mualliflarning o'zlari mas'uldirlar.

chunki xorijiy bemorlar bilan samarali muloqot qilish tibbiy xizmatlarning sifatini oshirishi va mamlakatimizni xalqaro tibbiy turizm bozorida yanada raqobatbardosh qilishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Xu T, Wang W, Du J. An Integrative Review of Patients' Experience in the Medical Tourism. Inquiry. 2020 Jan-Dec;57:46958020926762. doi: 10.1177/0046958020926762. PMID: 32513038; PMCID: PMC7285947.
2. Bulatovic, I.; Iankova, K. Barriers to Medical Tourism Development in the United Arab Emirates (UAE). *Int. J. Environ. Res. Public Health* **2021**, *18*, 1365. <https://doi.org/10.3390/ijerph18031365>
3. Medical Tourism Association. Medical Tourism Index. Available online: <https://www.medicaltourism.com/mti/home> (accessed on 28 December 2020)
4. Wijayati, E. R., Ayuningtyas, D., Sjaaf, A. C., & Sulistiadi, W. (2025). Barriers to the development of medical tourism: a scoping review from a global perspective and lessons learned for Indonesia. *Healthcare in Low-Resource Settings*. <https://doi.org/10.4081/hls.2025.13475>
5. Röysky M. Overcoming language barriers in health care services in the medical tourism context: Health care companies' perspective. – 2015.
6. Flores G, Laws MB, Mayo SJ, Zuckerman B, Abreu M, Medina L, Hardt EJ. Errors in medical interpretation and their potential clinical consequences in pediatric encounters. *Pediatrics*. 2003 Jan;111(1):6-14. doi: 10.1542/peds.111.1.6. PMID: 12509547.

INGLIZ TOPISHMOQLARI TARIXI, TUZILISHI VA KONTENT TAHLILI

Kasimova Ra'no Rahmatulloyevna,

Filologiya fanlari doktori, Dotsent,

BuxSU, Ingliz adabiyoti

va Tarjimashunoslik kafedrası

r.r.kasimova@buxdu.uz

Saloyeva Mahbuba Asror qizi,

BuxSU 2-kurs magistranti

Qiyosiy tilshunoslik va lingvistik

tarjimashunoslik mutaxassisligi

m.a.saloyeva@buxdu.uz

Annotatsiya. Tili o'rganilayotgan maamlakat madaniyati, urf-odatları, xalq og'zaki ijodini o'rganish ham muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. Bu o'rinda folklorning, ayniqsa topishmoqlarning salmoqli o'rni mavjud. Tilni topishmoqlar yordamida o'rganish yanada qiziqarli, shuning bilan birga u o'zida muhim lingvokulturologik xususiyatlarni ham aks ettiradi. Topishmoqlar jumboqlanishi turlicha bo'lib, ular o'zida bir qator pragmatik ma'nolarni mujassamlashtiradi.

Ushbu tezisda ingliz topishmoqlarining kelib chiqishi, ularning turlari haqidagi ma'lumotlar yoritiladi, shuningdek ingliz topishmoqlarining qiziqarli jumboqlanishi, o'ziga xos tasvirlanishi haqida kengroq tushuncha beriladi. Bir qator topishmoqlarning kontent tahlili ochib beriladi.

Kalit so'zlar: topishmoq, konundrum, enigma, pragmatika, lingvopragmatika

Annotation The study of the culture, traditions, and oral folklore of the country whose language is being studied is also gaining importance. In this regard, folklore, especially riddles, plays a significant role. Learning a language with the help of riddles is more interesting, and at the same time it also reflects important linguocultural features. Riddles are of various types, and they embody a number of pragmatic meanings.

This thesis provides information about the origin of English riddles, their types, as well as a broader understanding of the interesting riddles and their unique description. A pragmatic analysis of a number of riddles is revealed.

Keywords: riddle, conundrum, enigma, pragmatics, linguopragmatics

Аннотация. Изучение культуры, традиций и устного народного творчества страны, язык которой изучается, также приобретает все большее значение. В этом отношении большую роль играет фольклор, особенно загадки. Изучение языка с помощью загадок более интересно, и в то же время отражает важные лингвокультурологические особенности. Загадки бывают разных типов и воплощают в себе ряд прагматических значений. В данной статье представлена информация о происхождении английских загадок, их типах, а также более широкое представление об интересных загадках и их уникальном описании. Выявлен прагматический анализ ряда загадок.

Ключевые слова: загадка, головоломка, энигма, прагматика, лингвопрагматика

Har bir xalqning og‘zaki ijodida uning chiroyli namunalarini uchratish mumkin. Ammo ular tarixan kelib chiqishi, turlari jihatidan farq qiladi. Ingliz adabiyotida topishmoqqa ikki ma‘nodan iborat bo‘lgan jumla, savol, yoki fraza deb ta’rif beriladi. Ingliz adabiyotida topishmoqlar eski ingliz she’riyatidan kirib kelgan. Topishmoqlar taxminan 700-yilning boshlarida ingliz tilining dastlabki shakli bo‘lmish qadimgi ingliz tilida yozilgan. Bu topishmoqlar bo‘ronlar, kemalar, kitoblar va lochinlar haqida bo‘lgan. Ba’zi topishmoqlar sodda ko‘rinsada, ularni tushunish qiyin. Chunki topishmoqlar o‘sha davrdagi tabiat hodisalari va kundalik hayot bilan uzviy bog‘liqlikni ta’minlagan. Ayni xalq ko‘ngilxushligi uchun mo‘ljallab, dastlabki bosmadan chiqarilgan kitoblardan biri ham topishmoqlar to‘plami bo‘lgan.

Topishmoqlar to‘plami bo‘lgan “Qiziqarli savollar” (“Amusing questions”) kitobi 1511 yilda matbaachi Vinkin de Vorde tomonidan Angliyada chop etilgan. [1] Keyinchalik topishmoq namunolari teatrda ham keng qo‘llanila boshlandi. Shekspir o‘z ijodida topishmoqlarning ko‘p namunalaridan foydalangan. Ingliz topishmoqlari tuzilishiga, yaratilgan davriga, mazmun mohiyatiga, jumboqlanayotgan predmet turiga ko‘ra bir qator guruhlariga bo‘linadi.

Ingliz topishmoqlari yaratilgan davriga ko‘ra asosan, **qadimgi (old riddles)** hamda **zamonaviy (contemporary riddles)** turlariga bo‘linadi. Qadimgi topishmoqlar Exeter Book kitobiga kiritilgan. Bu kitob qadimgi ingliz adabiyoti haqidagi hozirgacha saqlanib qolgan eng katta hajmdagi manba hisoblanadi. Topishmoqlar uch guruhda berilgan. Topishmoqlarda tabiat, insonlar, urush maydonlari, oshxona jihozlari, hayvonot olami kabi mavzular yoritilgan. Masalan:

I war oft against wave and fight against wind,
do battle with both when I reach to the ground,
covered by the waters. The land is strange to me.
I am strong in the strife if I stay at rest.
If I fail at that they are stronger than I
and forthwith they wrench me and put me to rout.
They would carry away what I ought to defend.
I withstand them then if my tail endures
and the stones hold me fast. Ask what my name is. [6]

Bu topishmoq ham dengizchilikka oid bo‘lib, uning javobi langar (anchor). Qadimgi topishmoqlarning o‘ziga xosligi shundaki, ular she’riy shaklda yozilgan, bugungi zamonaviy ingliz tiliga o‘girilganda esa, asosan nasriy ko‘rinishga kelgan. Exeter Book kitobida yozilgan topishmoqlarni Marsella Makkarti, Vermont Universiteti professori Frederik Tupper kabi olimlar chuqur o‘rganganlar.

Hozirgi zamonaviy ingliz tilida yaratilgan topishmoqlarning turlari va tematik mazmuni nihoyatda rang-barang. Qo‘llanish doirasiga ko‘ra ham ular turfa klassifikatsiyalarga ega. Ular tuzilishiga ko‘ra asosan ikki guruhga ajratiladi. Bular **enigma** hamda **konundrum** turlaridir. Enigma bu shunday muammoli jumboqki, uning yechimi metaforik yo‘nalishda ifodalanadi. Uni topuvchi kishi juda chuqur mulohaza yuritishiga to‘g‘ri keladi. Masalan:

Alive without breath,
As cold as death,
Never thirsty, ever drinking,

All in mail, never clinking

Baliq haqidagi bu topishmoqda chiroyli o‘xshatishdan foydalanilgan. Nisbatan salbiy bo‘lsada, bu yerda predmetning yashash muhiti kengroq yaratilgan. Ikkinchi misrada ajoyib metaforik ko‘chimlardan foydalanilgan.

Topishmoqning ikkinchi turi “konundrum” (conundrum) deb ataladi. Konundrum sodda tuzilish va mantiqiylikka ega bo‘lgan topishmoq turidir. Bunday topishmoqlar tarkibidan javobni topsa bo‘ladi yoki ular osongina javobga ishora qiladi. Bunga bir qator misollar keltirish mumkin:

In winter and in summer

They stand in both one colour (archa)

Ingliz topishmoqlarining *she’riy* va *nasriy*, *Game riddles*, *Pun* kabi turlari ham mavjud. Zamonaviy ingliz topishmoqlarining aksariyat qismi yumoristik ruhda bo‘lib, pun (so‘z o‘yini) shaklida tuzilgan. Ular bolalarning chaqqonligini, topqirligini oshirish uchun qo‘llaniladi.

"What's black and white and red (read) all over?"

"A newspaper."

"What's brown and sticky?"

"A stick."

Xulosa

Shuni ta’kidlash muhimki, ingliz xalq og‘zaki ijodida ham topishmoqlarning alohida roli mavjud. Qadimgi topishmoqlar o‘ziga xosligi, she’riy shaklda ekanligi hamda tasvirning yuqoriligi bilan ajralib turadi. Zamonaviy ingliz topishmoqlarining ham “pun” “game riddles” kabi qiziqarli turlari mavjud bo‘lib, ular bolalar fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga, topqirlikni oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Hojimatova Mashhura. “Ingliz va o‘zbek topishmoqlarining shakl va mazmun jihatidan semantic stilistik tahlili” mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi, Andijon-2014. 84 b.
2. Kasimova R.R, Saloyeva M.A, THE IMPORTANCE OF PRAGMATICS IN CONTRASTIVE LINGUISTICS, TURIZM SOHASIDA SOTSIAL MEDIA, MAHALLIY MADANIYATLAR VA GID HAMROHLIK MUNOSABATLARI Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami, Andijon 29-30-oktabr, 2024 yil 23b.
3. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
4. A Pragmatic Analysis of Selected Riddles in English, Ayat Abbas Marzoq Saad, Iman Mingher Obied, Res Militaris, vol.12, n°2, Summer-Autumn 2022
5. <http://contemporaryriddles.co.cc> Contemporary Riddles
6. [www. archieve.org/stream/riddleofExeterBook](http://www.archieve.org/stream/riddleofExeterBook)

AMERIKA DETEKTIV ADABIYOTI TARAQQIYOT BOSQICHLARI VA IJODKORLAR USLUBI

Safarova Zilola Tolibovna,

BuxSU dotsenti

z.t.safarova@buxdu.uz

Niyazova Dilnoza Jo‘rayevna,

BuxSU magistranti

d.j.niyazova@buxdu.uz

Annotation: This article examines the historical evolution of American detective literature, from its first origin to its unique development through various periods. Highlighting iconic figures like Edgar Allan Poe, Anna Katharine Green, and Dashiell Hammett, the article outlines how the genre adapted to social change, integrated hard-boiled fiction, and eventually embraced female voices and feminist perspectives. It presents detective literature as a mirror of justice, crime, corruption, and societal values across generations.

Keywords: American detective fiction, hard-boiled detective, crime, justice, feminism, female writers, corruption, private detective, investigation, literary evolution.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Amerika detektiv adabiyotining tarixiy taraqqiyoti yoritilgan. Unda janrning paydo bo‘lishi va taraqqiy etishi, Edgar Allan Po, Anna Ketrin Grin,

<i>Djabborova Feruza Odilovna, Rayimova Xushro‘y Zafar qizi</i>	<i>Integration of english with other subjects in primary education.....</i> 289
<i>Djabbarova Feruza Odilovna, Nuriddinova Durdona Nuriddin qizi</i>	<i>Til o‘rganishda psixologik to‘siqlar va ularni yengish yo‘llari.....</i> 291
<i>Djabbarovna Feruza Odilovna, Ergasheva Kamola Dilmurod qizi</i>	<i>O‘zbekistonda xorijiy tillarning o‘rni</i> 296
<i>Raximova Madina, M.Mamashayeva,</i>	<i>Chet tili darslarida matnlar bilan ishlash</i> 299
<i>Djabbarova Feruza Odilovna, Rustamova Sodatjon Xayriddin qizi</i>	<i>Ingliz tilini o‘rganayotgan o‘quvchilar va o‘rganish qiyinchiliklariga ega bo‘lgan o‘quvchilar</i> 300
<i>Haydarov Anvar Askarovich, Sattorova Shakhriyoda Umedjon qizi</i>	<i>The usage of different graphic devices and punctuation marks.....</i> 303
<i>A.A.Haydarov, M.U.Yodgorova</i>	<i>Exploring emotional concepts understanding the multifaceted language of human feelings.....</i> 305
<i>Xolmirzayeva Navbahor</i>	<i>Appropriate and new methods of teaching general english.....</i> 306
<i>Ataboyev Nozimjon Bobojon o‘g‘li Astanova Gulnora Maqsudovna</i>	<i>Britaniya milliy korpusida sintaktik qurilmalarning tarjima shakllari</i> 308
<i>Axmedova Mexrinigor Baxadirovna Nizomova Azizabonu Umedovna</i>	<i>The development of children's portrayal in drama</i> 311
<i>Bobokalonov Odilshoh Ostonovich Kurbanbayeva Ruzakhon Sultanvay qizi Azimjonova Husniya Shonazar qizi</i>	<i>Emerging digital trends in french language education.....</i> 315
<i>Xodjayeva Dilafro‘z Izatilloevna, Ergasheva Maftuna Bayramaliyevna</i>	<i>Astronimlarning nominativ xususiyatlari</i> 319
<i>Iskandarova Nodira Ulug‘bek qizi</i>	<i>O‘zbek tilining xorazm shevasi va ingliz tilining qarindoshlik terminlarining o‘rganilishi</i> 322
<i>Furqatjonova Nigina Umarjonovna</i>	<i>Integrating intercultural competence in foreign language teaching: challenges and strategies</i> 326
<i>Ismoilova Firuza Ulug‘bek qizi</i>	<i>Tibbiy turizmni rivojlantirishda lingvistik to‘siqlar va ularning yechimlari: mualliflar yondashuvi asosida tahlil</i> 328
<i>Kasimova Ra‘no Rahmatulloyevna, Saloyeva Mahbuba Asror qizi,</i>	<i>Ingliz topishmoqlari tarixi, tuzilishi va kontent tahlili</i> 331
<i>Safarova Zilola Tolibovna Niyazova Dilnoza Jo‘rayevna</i>	<i>Amerika detektiv adabiyoti taraqqiyot bosqichlari va ijodkorlar uslubi.....</i> 333
<i>G‘aniyeva Orzigul Xayriddinovna Ashurova Nigina Aziz qizi</i>	<i>“Isyon va itoat” romanida qahramonlar ruhiyati tasviri.....</i> 337
<i>Azimjonova Husniya Shonazar qizi</i>	<i>Psixolingvistikaning tibbiyotdagi ahamiyati bemor va shifokor o‘rtasidagi muloqot misolida</i> 341
<i>Qurbanova Nodira Roziqovna, Sharipova Komila Usmonovna</i>	<i>Magical realism or children’s fantasy? Genre tensions in mary poppins.....</i> 343
<i>Tursunov Mirzo Makhmudovich Mirzayeva Mohinur Zokir qizi</i>	<i>Linguistic and non-linguistic factors in character creation in uzbek national films.....</i> 346
<i>N. B. Ataboyev Ergashova Kamola Ikromovna</i>	<i>O‘zbek tilining milliy korpusida “vaqt” lisoniy birligining sintaktik tahlili.....</i> 348